



CHO'L PON SHE'RIYATIDAGI AYRIM PERIFRAZALARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Tòxtayeva Zaynura Òktam qizi

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi jadid adabiyotining yirik darg'alaridan biri hisoblanmish Cho'lpon ijodi va unda qo'llangan ayrim perifrazalarning lingvopoetik xususiyatlari to'g'risida fikr yuritiladi. Cho'lpon tomonidan aks ettirilgan perifrazalar davr tili xususiyatidan kelib chiqqan holda aks ettirilgan bo'lib, uning lingvopoetik sifatlari tezisimizning asosiy maqsadidan o'rin olgan.

Kalit so'zlar: jadid adabiyoti, Cho'lpon she'riyati, perifrazalar, lingvopoetik xususiyatlar, ilmiy tahlil.

Abstract: This thesis discusses the linguopoetic features of Cho'lpon's work, which is considered one of the major branches of modern literature, and some of the periphrases used in it. The paraphrases reflected by Cholpon were reflected based on the characteristics of the language of the period, and its linguopoetic qualities were the main goal of our thesis.

Key words: modern literature, Cho'lpon's poetry, paraphrases, linguopoetic features, scientific analysis.

Абстрактный: В данной диссертации рассматриваются лингвопоэтические особенности творчества Чолпона, считающегося одной из важнейших отраслей современной литературы, и некоторые используемые в нем перифразы. Парафразы, отраженные Чолпоном, были отражены с учетом особенностей языка того периода, и его лингвопоэтические качества были основной целью нашей дипломной работы.



Ключевые слова: современная литература, поэзия Чолпона, парафразы, лингвопоэтические особенности, научный анализ.


Barchamizga ma'lumki, har bir davrda siyosiy-ijtimoiy tuzum natijasi o'laroq o'ziga xos badiiy adabiy jarayon mavjud bo'lib, ular bir-biridan ma'lum maqsadlarga ko'ra farq qilgan. Xususan, jadid adabiyoti ham o'zining yangilikka intilganligi, maktab maorifini shakllantirish, milliy madaniy tizimni yuksaltirish, millatni birlikka chorlash kabi g'oyalarni o'z oldilariga maqsad sifatida qo'yganlar. Jadid adabiyotining yirik vakillaridan biri Abdulhamid Cho'lpon hisoblanib, u o'z hayot faoliyati davomida shoirlilik, yozuvchi va hattoki dramaturgiya sohasida ham muvaffaqiyat qozongan. Cho'lpon qator asarlar muallifi sanaladi, xususan, uning “Kecha va kunduz”, “Novvoy qiz”, “Buloqlar”, “Tong sirlari” kabi asarlari xalqimiz orasida ma'lum va mashhur¹. Cho'lpon ijodiga tilshunoslik nuqtayi nazardan yondashar ekanmiz, uning asarlarida qo'llangan ayrim perifrazalarning lingvopoetik tadqiqini aniqlash ushbu tezisimizning obyektini ekanligini qayd etishimiz maqsadga muvofiqdir.

Perifrazalar tanlangan shaxs, obyekt yoki voqelikning ikkinchi nomi hisoblanib, badiiy asar ta'sirchanligini oshirishda, so'z takrorining oldini olishda hamda ko'zlangan maqsadni o'quvchilarga yetkazib berishda qo'llanadigan badiiy-tasviriy vosita sanaladi². Cho'lpon ijodiyotidagi perifrazalarni lingvopoetik jihatdan tadqiq qilish uning ijod tili va asarlarining mohiyatini yanada chuqurroq ochib berishga yordam beradi.

Cho'lpon ijodidagi perifrazalar qaysi maqsadni ko'zlashiga ko'ra va ularni qaysi usulda aks ettirilishiga muvofiq quyidagicha guruhlashtirishimiz mumkin:

¹ www.wikipedia.uz

² www.wikipedia.uz



Ijodkor o‘z she‘rlarida perifrazalarni qo‘llash orqali, ko‘pincha, metaforik ma‘noni yaratishga harakat qilgan, xususan, “Buzilgan o‘lkaga” she‘rida quyidagicha perifraza uchraydi:

“Uchar qushday yosh yigitlar qayerda,

Tog‘ egasi – sor burgutlar qayerda³?”

Misrada qo‘llangan “tog‘ egasi” perifrazasi burgutlarga nisbatan qo‘llangan birlik sanalib, ularni tog‘ egalariga o‘xshatish orqali metaforik ma‘no hosil bo‘lgan. Bundan tashqari, “Mahmudxo‘ja (Behbudiy) xotirasi” nomli she‘rida ham muallif muhit zulmidan aziyat chekib, uni “oq kallalik-qora dev” perifrazasi bilan tasvirlaydi:

“Men-da ojiz ul muhitning oldida,

Qabring topib ko‘z yoshimni to‘kmakka.

Hamda achchiq xiddatim-la ul yerda,

Oq kallalik – qora devni so‘kmakka⁴”.

Qo‘shimcha sifatida aytish mumkinki, Cho‘lpon ayrim olingan birliklarni ham sinekdoxa usulidan foydalangan holda perifrazalarning yuzaga kelishiga zamin yaratgan:

“Xalq istagi: ozod bo‘lsin bu o‘lka,

³ www.kh-davron.uz

⁴ www.kh-davron.uz



Ketsin uning boshidagi ko‘lanka⁵”

“Xalq” she’ridan olingan yuqoridagi misralarda “ko‘lanka” leksik birligi sinekdoxa usulida qurilgan bo‘lib, perifraza hosil bo‘lishida asos vazifasini bajargan. Bunda “ko‘lanka” so‘zi butun xalq boshiga tushgan ko‘rgulik, yomon kunlar, og‘ir vaziyatlarga nisbatan qo‘llangan termin sifatida aks ettirilgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Cho‘lpon asarlarida aks etgan perifrazalar she’riyat tiliga xos bo‘lgan obrazlilik, ramziylikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, she’riy mavzularga xos g‘oyalarning ochib berilishida ham perifrazalardan foydalanish shoir ijodining yanada ta’sirchan bo‘lishiga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Cho‘lponning badiiy olami, T., 1993; Sharafiddinov O., Cho‘lponni anglash, T., 1994.
2. Sharafiddinov O., Cho‘lpon, T., 1991; Karimov N., Cho‘lpon, Toshkent, 1991.
3. Quronov D., Ruhiy dunyo tahlili, To‘g‘ri, 1994; Karimov N., Istiqlolni uyg‘otgan shoir, Toshkent, 2000; Karimov N., Cho‘lpon (ma’rifiy roman), T., 2003.
4. Yana oldim sozimni, T., 1991; Asarlar [3 j.li], 1-2j., 1999; Adabiyot nadir, T., 1993.
5. www.wikipedia.uz
6. www.kh-davron.uz
7. www.google.com

⁵ www.kh-davron.uz